

O'ktam Karimov,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU PhD doktoranti

Bahodir Mo'minov,

texnika fanlari doktori,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU kafedra mudiri


AXBOROT KUTUBXONA TIZIMINING STATISTIKA GENERATORI

Bugungi kunda axborot kutubxona muassasalarining jamiyatdagi roli sezilarli darajada o'zgargan. Hayotning yangi talablariga mos zamonaviy yondashuvlar paydo bo'ldi. Axborot-kutubxona muassasalarining ana'naviy funksiyalari — ta'lif va madaniyat, bosma meros jamlanmalarini saqlash va tarqatish hali ham dolzarbigicha qolmoqda.[3] Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar foydalanuvchilar ehtiyojini qondira olmayapti. Kutubxonadan foydalanuvchilar faqat kutubxona fondidagi mavjud manbalardangina foydalanhishni emas, balki milliy va jahon axborot tarmoqlarida joylashgan axborotlardan ham foydalanhishni istaydilar. Kutubxona jarayonlari texnologiyalari ham tez o'zgarmoqda, ularga mos foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish usullari, kutubxonachi va foydalanuvchi orasidagi munosabatlar ham o'zgarmoqda. [1]

Kutubxona faoliyatini boshqarishda kutubxona statistikasi katta ahamiyatga ega masalalardan biridir (1-rasm). Kutubxonaning kundalik vazifasiga yuklatilgan ishlarni tahlil qilish uchun 50ga yaqin statistika jadvallarini yuritish mumkinligi aniqlandi [2]. Axborotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun esa 100ga yaqin statistika jadvalini shakllantirish mumkin. Aksariyat statistika jadvallarining metama'lumotlari bir-birlarini takrorlasa-da, ammo turli maqsadlarida shakllantiriladi. Statistika jadvallari bir-birlarida kamida bir nafar ko'rsatkich bilan farq qiladi. Axborot kutubxona xodimlari foydalanuvchilarga foydali bo'ladigan, analitik mahsulot yaratish o'rniiga ushbu statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun kundalik ish vaqtlarining asosiy qismini sarflamoqdalar.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining bir guruh ilmiy tadqiqodchilari tomonidan axborot kutubxona faoliyatining statistikasini avtomatik ravishda, hisobga olishga mo'ljallangan universal statistika generatori ishlab chiqilib, ARMAT++

tizimiga integratsiya qilindi. ARMAT++ tizimining statistika generatori yordamida axborot-resurs markazining avtomatlashirilgan tizimida Axborotga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun 100ga yaqin statistika jadvalini shakllantirish usuli quyida yoriligan:



1-rasm. Kutubxona statistikasiga asoslanib qaror qabul qilishning axborot modeli

Динамик хисобот					
	NOMI	MAYDON	OSTI	DEFAULT	SARLAVHASI
<input type="checkbox"/>	Hujunging kiritilgan sanusa	B	a		Hujunging kiritilgan sanusa
<input type="checkbox"/>	Nashr deuni tipi	B			Nashr deuni tipi
<input type="checkbox"/>	Sana 1	B	c		Sana 1
<input type="checkbox"/>	Sana 2	B	d		Sana 2
<input type="checkbox"/>	Nashr joyi	B	e		Nashr joyi
<input type="checkbox"/>	Davryligi	B	f		Davryligi
<input type="checkbox"/>	Davomyligi	B	g		Davomyligi
<input type="checkbox"/>	ISSN markasi	B	h		ISSN markasi
<input type="checkbox"/>	Davry nashr tipi	B	i		Davry nashr tipi
<input type="checkbox"/>	Asoniy berlik shakli	B	j		Asoniy berlik shakli
<input type="checkbox"/>	Berlik shakli	B	k		Berlik shakli
<input type="checkbox"/>	Davry munderija harakati	B	l		Davry munderija harakati
<input type="checkbox"/>	Munderija harakati	B	m		Munderija harakati
<input type="checkbox"/>	Nashr qilingan joy tipi	B	n		Nashr qilingan joy tipi

2-rasm. Axborot kutubxona tizimining dinamik hisobot moduli

- Statistika generatorini ishga tushirish uchun kataloglashtiruvchining AJ menyusidan «dinamik hisobot» tugmasi bosiladi (2-rasm).
- Ochilgan oynada statistikani shakllantirish uchun kerakli metama'lumotlar tanlab olinadi (3-rasm).
- Elektron katalogda mayjud bo'lgan barcha bibliografik yozuvlardan kerakli bibliografik yozuvlarni ajratib olish uchun mos ravishda, tanlangan metama'lumotlarning qiymatlari qo'yib chiqiladi (4-rasm).
- Avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi elektron katalogi metama'lumotlarining nomlanishi ISO 2709 standarti tarkibiga kiruvchi MARK21 kommunikativ formatiga asoslangan bo'sada, talab etilgan statistika jadvalida xuddi shu ma'lumot boshqa nom bilan ko'rsatilgan bo'lishi, bunday hollarda, dinamik hisobotning o'ng qismida metama'lumotning jadvalda nomini o'zgartirish mumkin (5-rasm).
- Statistika jadvalini shakllantirish uchun barcha metama'lumotlar tanilib, kerakli saralash shartlari va nomlanishlar o'rnatilgach, «hisobotni shakllantirish va WORD da ochish» tugmasi bosiladi (6-rasm).

Xulosa qilib aytganda, Kutubxona faoliyatini aks ettirib boradigan turli statistika jadvallari avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi tarkibida dinamik hisobot ko'rinishda statistika generatori yordamida shakllantirilsa, axborot kutubxona muassasasi xodimining kundalik ish faoliyatini sezilarli darajada yengillashtiradi va analitik mahsulotlarni yaratishga ko'proq vaqt ajratishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Karimov U. F.** Avtomatlashtirilgan Axborot kutubxona tizimining intrekтив xizmatlari// Kutubxona.UZ. – 2017. – №4. – Б. 40–43
- Rakhmatullaev M. A., Karimov U. U.**, Models of integration of information systems in higher education institutions //12th International scientific conference: Society, integration, education – 2018. – Volume 3. – pp. 72–77
<http://journals.ru.lv/index.php/SIE>
- Karimov U. U.** O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalari reytingini oshirishda elektron kutubxonalarining o'rni // InfoCom.UZ. – 2018. – №1. – Б. 78–80

Динамик ҳисобот

X	NOMI	MAYDON	OSTI	DEFAULT	SARILAVHASI
<input type="checkbox"/> Hujuning kintig'an sanasi	0	a			Hujuning kintig'an sanasi
<input type="checkbox"/> Nashr davri tipi	0	b		Бонг ёки таъсир !!!	Nashr davri tipi
<input type="checkbox"/> ISSN markazi	0	h		Бонг ёки таъсир !!!	ISSN markazi
<input type="checkbox"/> Davriy nashr tipi	0	i		Бонг ёки таъсир !!!	Davriy nashr tipi
<input type="checkbox"/> Asosiy birlik shakli	0	j		Бонг ёки таъсир !!!	Asosiy birlik shakli
<input checked="" type="checkbox"/> Familya ism sharif	100	a			Familya ism sharif
<input checked="" type="checkbox"/> Shaxs roli	100	e		- Танланг -	Shapes roli
<input type="checkbox"/> To'liq ism	100	q			To'liq ism
<input type="checkbox"/> Tituli (urvon)	100	c			Tituli (urvon)
<input type="checkbox"/> Tashkilot nomi	110	a			Tashkilot nomi

3-rasm. Statistika uchun metama'lumotlarni tanlash jarayoni

<input type="checkbox"/> Nashriyot	260	b	Бонг ёки таъсир !!!	Nashriyot
<input checked="" type="checkbox"/> Nashr etilgan yil	260	c	2017!	Nashr etilgan yil
<input type="checkbox"/> Hajm	300	a		Hajm
<input type="checkbox"/> Boshqa fizik xarakteristikalar	300	b		Boshqa fizik xarakteristikalar

4-rasm. Saralash uchun metama'lumotlar qiymatlarini o'rnatishtirish jarayoni

<input type="checkbox"/> Nashriyot	260	b	Бонг ёки таъсир !!!	Nashriyot
<input checked="" type="checkbox"/> Nashr etilgan yil	260	c	2017!	2017-nashr qilingan adabiyotlar
<input type="checkbox"/> Hajm	300	a		Hajm
<input type="checkbox"/> Boshqa fizik xarakteristikalar	300	b		Boshqa fizik xarakteristikalar

5-rasm. Statistika jadvalini shakllantirish uchun metama'lumotlarni nomini o'zgartirish jarayoni

<input type="checkbox"/> Nashriyot	890	b	Бонг ёки таъсир !!!	Nashriyot
<input checked="" type="checkbox"/> Nashr etilgan yil	890	f	Бонг ёки таъсир !!!	2017-nashr qilingan adabiyotlar
<input type="checkbox"/> Hajm	890	g	Бонг ёки таъсир !!!	Hajm
<input type="checkbox"/> Boshqa fizik xarakteristikalar	890	h		Boshqa fizik xarakteristikalar
<input type="checkbox"/> Sarlavha grafikasi	900	i		
<input type="checkbox"/> Xujjat turi	900	a		
	901	t	- Танланг -	
	920	a		
	927	a		

Хисоботни шакллантириш ва Word da очиш

6-rasm. Hisobotni shakllantirish va WORDda ochish tugmasi

Familiya ism sharif	Shaxs roli	Tashkilot nomi	Nashriyot	2017-nashr qilingan adabiyotlar	Hajm
Шарипов А.	Муаллиф		Ўзбекситон	2017	260 б.
Файзуллаев Б.	Муаллиф		Фан	2017	120 б.
Каримов У.	Муаллиф		Ўқитувчи	2017	180 б.

7-rasm. Statistika generatori yordamida shakllantirilgan jadval